



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



JORJ ORUELLNING '1984' ASARI: INSON ERKINLIGI, NAZORAT VA HAQIQAT KURASHI

Muhammadyusuf Nomonjonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Biznes boshqaruvi yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jorj Oruellning “1984” romani ijtimoiy-siyosiy nazorat, inson erkinligi va totalitar tuzumlarning ruhiy mexanizmlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarning bugungi kunda axborot nazorati, soxta haqiqat va shaxsiy erkinlik muammolari bilan uyg'unligi ilmiy yondashuvda o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Inson erkinligi, Totalitarizm, Nazorat, Haqiqat, Propaganda*

Kirish: Ingliz yozuvchisi Jorj Oruell tomonidan yozilgan “1984” romani XX asr adabiyotining eng mashhur va dolzarb asarlaridan biri sanaladi. Unda yozuvchi totalitar tuzum — ya'ni butun jamiyatni nazorat qiluvchi davlat tizimini tasvirlaydi. Asarda inson erkinligining chegaralari, haqiqatni yashirib yolg'onni haqiqat qilib ko'rsatish, shaxsiy fikrni yo'qotish kabi muammolar yoritilgan. Oruell bu asarni yozish orqali jamiyatni ogohlantirmoqchi bo'lgan: agar inson o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lmasa, inson o'z mohiyatini yo'qotadi.

Asarning mazmuni va bosh g'oyasi: Roman voqealari “Okeaniya” deb atalgan davlatda kechadi. Bu davlatda hamma narsani “Katta Og'a” nazorat qiladi. Hamma joyda kameralar, mikrofonlar o'rnatilgan, odamlarning so'zini, hatto fikrini ham kuzatib turishardi. Hamma yerda KATTA OG'A SENI KUZATYAPTI kabi fikrlar insonlarning o'ngiga singib ketgan. Bosh qahramon Uinston Smit — oddiy xizmatchi. U “Haqiqat vazirligi”da ishlaydi, lekin u yerda haqiqat emas, hukumatga foydali yolg'onlar yoziladi. Uinston ich-ichidan bu yolg'onlarga qarshi chiqadi. U haqiqatni bilmoqchi bo'ladi, o'z fikrini saqlab qolishga urinadi.

Uinstonning eng katta kechinmasi — fikr va tuyg'ularini yashirish majburiyati. U o'z yuragini yashirgan holda yashaydi, chunki har qanday mustaqil fikr “jinoyat” hisoblanadi. Uning yuragida qo'rquv, umidsizlik va ozgina qorquv hissi bo'ladi.

Uinstonning hayotiy kechinmalari: Uinston yoshligida eng yaqin insonlaridan ayrilgan bo'ladi. U sevgi orqali ozodlikni his qiladi — u Juliya ismli qizni sevadi. Ular yashirincha uchrashadi, o'zlarini ozod his qiladi. Ammo bu ozodlik uzoqqa cho'zilmaydi. Ular “fikr politsiyasi” tomonidan fosh etiladi. Uinston qamoqqa olinadi, qiynoqqa solinadi, va eng og'ir azob — ruhiy sinishdan o'tadi. “Sevgi vazirligi”da unga o'z e'tiqodidan voz kechish, “Katta Og'a”ni sevishni o'rgatishadi. Natijada u ruhiy jihatdan butunlay sindiriladi.

Bu jarayon orqali Oruell inson ruhining eng zaif nuqtasini ko'rsatadi: zo'ravonlikdan emas, haqiqatni yo'qotishdan inson yemiriladi.

Asarning ijtimoiy-siyosiy tahlili: “1984” — bu shunchaki hikoya emas, balki siyosiy tizimlar haqida ogohlantiruvchi asar. Oruell ko'rsatmoqchi bo'lgan g'oya shuki: davlat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



axborotni boshqarsa, inson haqiqatni yo‘qotadi; odamlar qo‘rquvda yashasa, ular fikr yuritmay qo‘yadi; haqiqatni yo‘qotish — ozodlikni yo‘qotish demakdir.

Asardagi “Haqiqat vazirligi”, “Sevgi vazirligi” kabi joylar — bu paradoks, ya’ni nomi boshqacha, amalda butunlay teskari. Shunday yo‘l bilan yozuvchi davlat propogandasining soxta tabiatini ochib beradi.

Zamonaviy davr bilan bog‘liqligi: Bugungi kunda bu asar yanada dolzarb. Internet, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlarning fikrini shakllantirish, kuzatish yoki manipulyatsiya qilish hollari ko‘paymoqda. Ba’zi davlatlarda axborotlar nazorat qilinadi, ayrim joylarda esa yolg‘on haqiqatga aylanadi — bu aynan Oruell ogohlantirgan holatdir. Demak, “1984” bizni ogohlantiradi: erkinlikni yo‘qotish kuch bilan emas, haqiqatni yo‘qotish bilan boshlanadi.

Xulosa:

Jorj Oruellning “1984” asari insoniyatga katta saboq beradi. U shunchaki adabiy asar emas, balki ogohlantirishdir. Uinston Smit obrazi orqali yozuvchi insonning ruhiy kurashi, haqiqatga bo‘lgan ishonchi va erkinlik uchun intilishini ko‘rsatadi. Asar bizga eslatadi: erkin fikrlash — insonning eng buyuk boyligi, va uni himoya qilish har birimizning burchimizdir.

URUSH - TINCHLIKDIR.

ERK - QULLIKDIR.

BILIMSIZLIK - KUCHDIR.

Mana shu shior mening fikrimni butunlay o‘zgartirib yubordi desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jorj Oruell – 1984 Totalitarizm va erkinlik kurashi
2. Hannah Arendt – The Origins of Totalitarianism Totalitar tizim va nazorat
3. Edward L. Bernays – Propaganda Propaganda va ong boshqaruvi

